**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti rektori**
__________ **O.SH.Bazarov**
“___” __________2024 yil

**Ro‘yxatga olindi №** 05/03/024
“27” iyun __________2024 yil

# YASHIL IQTISODIYOT

# FANINING O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 300 000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| **Ta’lim sohasi:** | 310 000 - Ijtimoiy va hulq atvorga oid fanlar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) |

**Qarshi 2024-yil**

| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| GRECO4 | 2024-2025 | 6 | 4 | |
| Fan/modul turi | Ta'lim tili | | Haftadagi dars soatlari | |
| Tanlov fani | O'zbek | | 4 | |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Yashil iqtisodiyot | 60 | 60 | 120 |

2. **I. Fanning mazmuni**

O'zbekiston Respublikasida "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktabrda tasdiqlangan "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturilamal hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kabilar kiradi. Ushbu belgilangan vazifalarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi.

2030 yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010 yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi.

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyatini asoslash, "yashil iqtisodiyot"ni baholash ko'rsatkichlari va indikatorlarini tahlil etish, jahon amaliyotida shakllangan "yashil iqtisodiyot"ga o'tish modellarini qiyosiy o'rganish, O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** – "yashil iqtisodiyot"ga oid kategoriyalar va tushunchalar mohiyatini ochib berish; barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning tutgan o'rnini baholash; "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining maqsadi, tamoyillari va amalga oshirish mexanizmini tahlil etish; "yashil iqtisodiyot" va "yashil o'sish" miqyosini baholashning xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilayotgan yondashuvlarini qiyosiy tahlil etish; "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonini moliyalashtirish holati, ko'rsatkichlari va rivojlanish istiqbollarini o'rganish; "yashil energetika"ga barqaror rivojlanish omili sifatida baho berish; organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish muammolarini o'rganish; jahondagi ekologik vaziyatga baho berish va ekologik siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini



asoslash; jahonning yetakchi mamlakatlarida "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish, milliy dasturlarini amalga oshirish borasidagi jamlangan boy, ilg'or tajribani qiyosiy tahlil qilish; O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasining maqsadi, vazifalari va rivojlanish istiqbollarini o'rganish.

**II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**I-Mavzu: Kirish. "Yashil iqtisodiyot" fanining predmeti va metodi**

"Yashil iqtisodiyot" fanining predmeti va vazifalari. Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil" iqtisodiyotning o'rni. "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari. "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish yo'nalishlari

**II-Mavzu: "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning zaruriyati, tamoyillari va dastaklari**

Resurslarning cheklanganligi va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish tamoyillari. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish siyosatining dastaklari. "Yashil iqtisodiyot"ning axborot resurslari va "yashil iqtisodiyot" uchun inson kapitalini rivojlantirish

**III-Mavzu: "Yashil iqtisodiyot"ni baholash amaliyoti va indikatorlari**

"Yashil iqtisodiyot"ni baholashning kompleks usuli. Jahon banki yondashuvi. "Yashil iqtisodiyot"ni baholashda xalqaro tashkilotlar yondashuvi: umumiy va farqli jihatlar UNEP va "yashil iqtisodiyot"ga o'tishni baholash "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonini baholashning IHTT yondashuvi GGGI va Dual Citizen xalqaro agentliklarining reyting usuli

**IV-Mavzu: "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonini moliyalashtirish**

"Yashil moliyalashtirish" tushunchasi "Yashil moliyalashtirish" tizimining tarkibi va amal qilish xususiyatlari "Yashil loyihalar"ni investitsiyalash yo'nalishlari va dastaklari Jahon moliya bozorida "yashil obligatsiyalar"ning o'rni Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirishni investitsiyalash xususiyatlari

**V-Mavzu: "Yashil energetika" barqaror iqtisodiy rivojlanish omili sifatida**

"Yashil iqtisodiyotni" rivojlantirishda tiklanadigan energiya manbalarining o'rni. Tiklanadigan energiya iste'molining holati, tarkibi va rivojlanish istiqbollari. "Yashil energetika"ning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar. "Yashil energetika"ni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorij tajribasi. O'zbekistonda "yashil energetika"ni rivojlantirish istiqbollari

**VI-Mavzu: Qishloq xo'jaligini "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlantirish**

Qishloq xo'jaligini "yashil iqtisodiyot" asosida rivojlantirish muammolari Organik qishloq xo'jaligi tushunchasi, rivojlanish ko'rsatkichlari va usullari Organik qishloq xo'jaligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari O'zbekistonda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

**VII-Mavzu: Ekologik siyosat va uni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi**

Ekologik muammolarning mohiyati, oqibatlari va hal etish yo'llari Ekologik siyosatning mohiyati, turlari va vazifalari Ekologik siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi O'zbekistonda ekologik vaziyat va ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlari

**VIII-Mavzu: IHTT mamlakatlarida "yashil o'sish"ni ta'minlash modellari**

IHTT mamlakatlarida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish dasturlari: umumiy va farqli jihatlar "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning AQSH tajribasi YEIda "yashil o'sish"ni

ta'minlash strategiyasining ustuvor yo'nalishlari Germaniyada "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish xususiyatlari Koreya Respublikasida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish omillari va rivojlanish istiqbollari

**IX-Mavzu: Rivojlanayotgan mamlakatlarda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish tajribasi**

Rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror rivojlanishni ta'minlash va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish muammosi "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning Xitoy tajribasi MDH mamlakatlarida "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari: Rossiya, Qozog'iston Respublikasi, Belorussiya Respublikasi

**X-Mavzu: O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari**

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi: zaruriyati, maqsadi, tamoyillari va vazifalari "Mamlakat iqtisodiyotining energiya samaradorligini oshirish yo'nalishlari Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish istiqbollari Iqlim o'zgarishlari oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yo'llari "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish

## III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Kirish "Yashil iqtisodiyot" fanining predmeti va metodi
2. "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish yo'nalishlari
3. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning zaruriyati, tamoyillari va dastaklari
4. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish tamoyillari
5. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish siyosatining dastaklari
6. "Yashil iqtisodiyot"ni baholash amaliyoti va indikatorlari
7. "Yashil iqtisodiyot"ni baholashda xalqaro tashkilotlar yondashuvi: umumiy va farqli jihatlar
8. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonini baholashning IHTT yondashuvi
9. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonini moliyalashtirish
10. "Yashil loyihalar"ni investitsiyalash yo'nalishlari va dastaklari
11. "Yashil energetika" barqaror iqtisodiy rivojlanish omili sifatida
12. "Yashil energetika"ni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorij tajribasi
13. O'zbekistonda "yashil energetika"ni rivojlantirish istiqbollari
14. Qishloq xo'jaligini "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlantirish
15. O'zbekistonda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari
16. Ekologik siyosat va uni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi
17. O'zbekistonda ekologik vaziyat va ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlari
18. IHTT mamlakatlarida "yashil o'sish"ni ta'minlash modellari
19. Rivojlanayotgan mamlakatlarda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish tajribasi
20. O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.



**Laboratoriya mashg'ulotlari**

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

## IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

**Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni**

***Mustaqil ta'limning maqsadi*** - talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar, internet ma'lumotlari, o'quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar.

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar) ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish boyicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishga qaratiladi. Ushbu shakllarga quyidagilar tegishlidir:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar boyicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar boyicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar boyicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarning o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- keys-stadilar va o'quv loyihalarini mustaqil bajara olish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish.

**Tavsiya etilgan mustaqil ishlarni mavzularning mavzulari**

1. "Yashil iqtisodiyot" fanining predmeti va vazifalari.
2. Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil" iqtisodiyotning o'rni.
3. "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari.
4. "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish yo'nalishlari
5. Resurslarning cheklanganligi va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati.
6. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish tamoyillari.
7. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish siyosatining dastaklari.
8. "Yashil iqtisodiyot"ning axborot resurslari va "yashil iqtisodiyot" uchun inson kapitalini rivojlantirish
9. "Yashil iqtisodiyot"ni baholashning kompleks usuli.
10. Jahon banki yondashuvi.
11. "Yashil iqtisodiyot"ni baholashda xalqaro tashkilotlar yondashuvi: umumiy va farqli jihatlar
12. "Yashil moliyalashtirish" tushunchasi
13. "Yashil moliyalashtirish" tizimining tarkibi va amal qilish xususiyatlari
14. "Yashil loyihalar"ni investitsiyalash yo'nalishlari va dastaklari
15. Jahon moliya bozorida "yashil obligatsiyalar"ning o'rni
16. Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirishni investitsiyalash xususiyatlari
17. "Yashil iqtisodiyotni" rivojlantirishda tiklanadigan energiya manbalarining o'rni.
18. Tiklanadigan energiya iste'molining holati, tarkibi va rivojlanish istiqbollari.
19. Yashil energetika"ning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar.
20. "Yashil energetika"ni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorij tajribasi.
21. O'zbekistonda "yashil energetika"ni rivojlantirish istiqbollari
22. Qishloq xo'jaligini "yashil iqtisodiyot" asosida rivojlantirish muammolari

23. Organik qishloq xo'jaligi tushunchasi, rivojlanish ko'rsatkichlari va usullari
24. Organik qishloq xo'jaligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari O'zbekistonda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari
25. Ekologik muammolarning mohiyati, oqibatlari va hal etish yo'llari
26. Ekologik siyosatning mohiyati, turlari va vazifalari
27. Ekologik siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi
28. O'zbekistonda ekologik vaziyat va ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlari
29. IHTT mamlakatlarida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish dasturlari: umumiy va farqli jihatlar
30. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning AQSH tajribasi
31. YEIda "yashil o'sish"ni ta'minlash strategiyasining ustuvor yo'nalishlari
32. Germaniyada "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish xususiyatlari
33. Koreya Respublikasida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish omillari va rivojlanish istiqbollari
34. Rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror rivojlanishni ta'minlash va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish muammosi
35. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning Xitoy tajribasi MDH mamlakatlarida "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari
36. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi: zaruriyati, maqsadi, tamoyillari va vazifalari
37. "Mamlakat iqtisodiyotining energiya samaradorligini oshirish yo'nalishlari
38. Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish istiqbollari
39. Iqlim o'zgarishlari oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yo'llari
40. "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish
41. Yashil iqtisodiyot va "yashil" o'sish: jahon tajribasi.

**Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan qo'shimcha ravishda loyiha ishi, esse, tezis yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.**

3.

**V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**

***Fanni o'zlashtirish natijasida talabada:***

- "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyatini asoslash, "yashil iqtisodiyot"ni baholash ko'rsatkichlari va indikatorlarini tahlil etish, jahon amaliyotida shakllangan "yashil iqtisodiyot"ga o'tish modellarini qiyosiy o'rganish, O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish bo'yicha ***bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi;***

- "yashil iqtisodiyot"ga oid kategoriyalar va tushunchalar mohiyatini ochib berish; barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning tutgan o'rnini baholash; "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining maqsadi, tamoyillari va amalga oshirish mexanizmini tahlil etish; "yashil iqtisodiyot" va "yashil o'sish" miqyosini baholashning xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilayotgan yondashuvlarini qiyosiy tahlil etish; jahondagi ekologik vaziyatga baho berish va ekologik siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini asoslash; jahonning yetakchi mamlakatlarida "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish, milliy dasturlarini amalga oshirish borasidagi jamlangan boy, ilg'or tajribani qiyosiy tahlil qilish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***



4.

**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
- jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni yechish;
- ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish.

5.

**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirishi zarur.

6.

**ASOSIY ADABIYOTLAR**


1. Adrian C. Newton. An Introduction to the Green Economy: 1st Edition. Routledge, 2014. - 382 p.
2. Greening the Global Economy (Boston Review Originals) Hardcover – November 13, 2015. - 176 p.
3. Miriam Kenne, Michelle Gale De Oliveira. Greening the Global Economy: Reform and Transformation. The Green Economics Institute, 2013. - 350 p.
4. Sevil Acar, Erinc Yeldan. Handbook of Green Economics: 1st Edition 2019. - 250 p.
5. Яшил иктисодиёт: Дарслик. /А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиев ва бошкалар. –Тошкент.: "Universitet", 2020. -262 б.
6. Баркарор тараккиёт ва табиатшунослик асослари. Дарслик. А.Э.Эргашев ва б. -Т.: Baktria press, 2016. - 296 б.


**QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrda tasdiqlangan PQ-4477-sonli "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori
2. Иминов Т.К., Вахабов А.В., Тешабоев Т.З., Бутабоев М.Т. "Зелёная экономика" как основа устойчивого развития. Монография. - Т.: "Aloqachi", 2019. - 480 с.
3. Кальнер, В. Д. «Зеленая» экономика и безальтернативные ресурсы природы / В. Д. Кальнер, В. А. Полозов. - М.: Калвис, 2016. - 576 с.
4. Липина С.А., Агапова Е.В., Липина А.В. Развитие зеленой экономики России: возможности и перспективы.-М.: ЛЕНАНД, 2018. - 328 с.
5. Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. и др.: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011. - 739 с.

| | |
|---|---|
| | 6. Сидорович В. Мировая энергетическая революция: как возобновляемые источники энергии изменят наш мир / В. Сидорович. - М.: Альпина Паблишер, 2015. - 208 с.<br>7. Фюкс Р. Зеленая революция: Экономический рост без ущерба для экологии / Ральф Фюкс; Пер. с нем. — М.: Альпина нон-фикшн, 2016. - 330 с.<br>**Axborot manbalari**<br>1. www.mineconomy.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>2. www.mehnat.uz. – O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>3. www.stat.uz.- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi<br>4. www.ima.uz. - O'zbekiston Respublikasi Sanoat mulki muhofazasi<br>5. http://www.nber.com – AQSh iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi sayti.<br>6. http://www.webofscience.com – Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.<br>7. http://www.scopus.com. - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.<br>8. http://www.elibrary.ru – Rossiya ilmiy maqollar indeksi.<br>9. www.uzreport.com.- Новости Узбекистана<br>10. www.gov.uz<br>11. www.lex.uz |
| 7. | **Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi** |
| 8. | **Fan / Modul uchun mas'ullar**<br>G.T.Samiyeva - "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>S.N.Xamrayeva - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, i.f.d.<br>X.S.Muxitdinov - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasi professori, i.f.d. |